OGAHIYNING NAVOIY G`AZALIGA BOG`LAGAN MUXAMMASI TAHLILI

Nilufar Ibragimova
BuxDU magistri

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ogahiyning Navoiyning "Meni men istagan…" misrasi bilan boshlanuvchi g'azaliga bog'lagan muxammasi g'oyaviy-badiiy va poetik-semantik jihatdan tahlil qilinadi. Unda shoirning inson, hayot, dunyo hamda sof insoniy ruhiy holat haqidagi qarashlarining badiiy ifodasi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, musammat, muxammas, ko'ngil, ma'shuqa, rafiq, fig'on.

Ulug' shoir Alisher Navoiy ijodi mumtoz ijodkorlar uchun ilhom manbayi bo'lib kelgan. Mumtoz adabiyotni janrlar takomiliga o'zining munosib hissasini qo'shgan ulug' shoir an'analari o'zidan keyin yashab, ijod qilgan qalam ahllari ijodiga ham ta'sir qildi. Buni birgina musammat turlariga murojaat misolida ham kuzatishimiz mumkin.

Mutafakkir shoir Alisher Navoiy musammat turlariga oid ijod namunalari bilan o'zbek mumtoz adabiyoti xazinasini boyitdi. Adabiyotshunos olima D. Yusupova "Alisher Navoiyning "Xazoyin ul- maoniy" kulliyotidagi muxammas, musaddas hamda musammanning yaratilish xususiyatlarini o`rganib, shoirning barcha musammatlari tazmin yo`nalishida yozilganligini qayd etgan.[1] Mumtoz adabiyotning Alisher Navoiydan keyingi taraqqiyotida Muhammad Rizo Ogahiyning xizmatlari nihoyatda katta. Muhammad Rizo Ogahiy ham Navoiy an'analarini davom ettirib, mumtoz janrlar ko'lamining kengayishida o'z salohiyati va iqtidorini namoyon qildi. Fikrimizni shoirning taxmis muxammasi tahlili orqali asoslamoqchimiz.

Ogahiyshunoslikdagi ma'lumotlarga ko'ra, Ogahiy devonida jami 90 ga yaqin muxammas mavjud.[2] Ularni yaratilish xususiyatlariga qarab uch guruhga bo'lish mumkin:

1) tab'i xud muxammaslar;
2) salaflar va zamondoshlar g`azallariga taxmis;
3) o'z g`azallariga taxmis[3]

Tahlilga tortganimiz Alisher Navoiyning "Meni men istagan..." deb boshlanuvchi mashhur g`azaliga taxmis sifatida yozilgan muxammasidir.

Falakkim yaxshilar bazmida qadrimni baland etmas,
Dami yo'qkim yamonlar majmaida mustamand etmas,
Bu hasratdin ko'zim ashki yo'lin bir lahza band etmas,
Mani man istagan o'z suhbatida arjumand etmas,
Mani istar kishining suhbatin ko'nglum pisand etmas.

---

[1] Yusupova D. Огаҳий тахмислари // "Огаҳийнинг ўзбек мумтоз адабиётининг ривожидаги ўрни" мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари. –Т.: 2020, 30- bet.

[2] Yusupova D. Огаҳий тахмислари // "Огаҳийнинг ўзбек мумтоз адабиётининг ривожидаги ўрни" мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари. –Т.: 2020, 30- bet.

[3] Yusupova D. Огаҳий тахмислари // "Огаҳийнинг ўзбек мумтоз адабиётининг ривожидаги ўрни" мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари. –Т.: 2020, 30- bet.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Muxammasning 1-bandida shoir falakdan shikoyat qilib, shunday deydi: "Falak, yaxshilar bazmida mening qadrimni baland etmaydi, yomonlar esa majma', ya'ni yig`ilishda meni hech kim pisand etmaydi, bu hasratdan ko'zimning yoshi bir lahza bo'lsa-da to'xtagani yo'q.

Ogahiy qalamiga mansub misralarda shikoyat "falak"ga qaratilgan bo'lsa, Alisher Navoiyda bu shikoyat yagona shaxsga qaratilgan: "Meni men istagan kishi o'z suhbatida qadrimni aziz tutmaydi, ammo meni istagan kishining suhbatini ko'nglim hech pisand etmaydi."

Majma' - yig`ilish, yig`iladigan joy; arjumand etmoq - qadrli, hurmatli, aziz etmoq; mustamand - g`amgin, bechora. Ko'rinib turibdiki, muxammasning dastlabki bandi sof insoniy tuyg`ular ifodasi bilan boshlangan. Alloh insonni ko'ngil atalmish ulug' ne'mat bilan siyladi-ki, bu uning boshqa maxluqotlardan ulug'ligiga ishoradir. Bu ko'ngil guldan nozik, toshdan qattig'. "Ko'ngilni ko'ngildan suv ichishi", ya'ni "yulduzi yulduziga to'g'ri kelishi" kamyob hodisa. Shu bois, lirik qahramon "yaxshilar bazmida" qadri baland emasligidan og'rinadi, bu hasratdan tinmay ko'z yosh to'kadi. Nega kishi o'ziga ma'qul kishilar bilan hamsuhbat bo'lish uchun ko'p qiyinchiliklarga duch kelishi kerak? Buning sabablari ko'p... Shulardan biri, inson o'ziga ma'naviy oziq berishi mumkin bo'lganlarga intiladi. Ammo intiltiruvchining imkoniyatlari intiluvchi istagan darajada bo'lmasligi mumkin:

Fig`onkim dahr- u dun ichra rafiqi topmadim ogah,
Qayon borsam bo'lurlar g`ulvashlar hamdam- u hamrah.
Tilarlar bahra mandin , men tilab topman biridin, vah,
Na bahra, topg`oman ondinki mandan istagay bahra,
Òzi ham bahramand o'lmas, mani ham bahramand etmas,

- deya fig`on chekadi. Bandda shoir dunyo - yu zamon ichra bir "rafiqi ogah" topmaganligini, qayerga borsa, "g`ulvash" lar unga hamroh bo'layotganini iztirob bilan bayon qiladi. Dahr - dunyo, zamon; g`ulvash - devdek, bahaybat, ayni paytda misrada bandida salbiy obraz sifatida gavdalanadi. Lirik qahramon o'z holatini bayon qilishda davom etar ekan, "Boshqalarga bahra yetkazish imkoniga ega bo'lmagan kishiga ko'z tutish o'rinli bo'lmaydi, imkoni borning esa menga nisbatan rag'bati mavjud emas", deya real hayotni holatni ko'rsatib bergan. So'zlar takrori asosiy g'oyani yetkazib berish uchun xizmat qilgan.

Keyingi bandda ham shoirning falsafiy qarashlari davom ettirilib, ayni paytda talmeh, tanosub va jam'u taqsim kabi badiiy san'atlardan ham mohirona foydalanilgan:

Kòzi zahri esa har nechakim moyil mamotimga,
Labi shahdi edi rog`ib o'limdin ham najotimga,
Bu dam vosil iymon ul qotili Iso sifotimga,
Netoy hur-u pari bazminki qatlim yo hayotimga ,
Ayon ul zahr chashm aylab nihon bu no'shxand etmas.

Mazkur bandda lirik qahramon "shikoyati" ma'shuqaga qaratilgan. "Ma'shuqa ko'zining zahri oshiqni o'ldirishga moyil, lablari esa o'limdan najot istovchidir. Hatto ma'shuqa oshiqning Iso sifatiga vosil, ya'ni erishuvchidir, hur-u parilar bazmi uning hayoti yoki qatliga aloqasi yo'q. Lirik qahramonni iztirobga solgan jihat: ma'shuqa zarharli qarashni yashirib, no'shxand – chiroyli kulish qilmaganidadir.

Bandda hur-u pari so'zlari hamda "ul" va "bu" olmoshlari ishtirokida jam'u taqsim san'ati hosil qilingan. Qolaversa, Iso payg'ambar nomini keltirish orqali talmeh san'atidan ham foydalanilgan.

Chiqa olmay ko'ngul hayrondur usru shomu furqatdin,
To'kar ashkini ko'z ham intizori subh vaslatdin,

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Iloji bo‘lmasa ul mahvashi xurshid tal’atdin,
Kerakmas oy ila kun shaklikim husnu malohatdin,
Ichim ul chok-chok etmas, tanim bu band-band etmas.

Lirik qahramon ma’shuqaning “ayriliq shomi”dan chiqa olmay sarson, tinmay ko‘z yoshi to‘kib, uning yo‘liga intizor. Agar u quyosh yuzli ma’shuqa o‘z siymosini ko‘rsatmasa, unga oy bilan quyosh husn-u malohatining keragi yo‘q.

Muxammas bandlari davomida darajalanish ko‘zga tashlanadi. Muxammasning 5-bandida ham lirik qahramon yorining yo‘qligidan “chashmi ashkborlar” to‘kkanligini, tobora sabr-u qarori qolmayotganini hamda u “qotilvash” yorning joyi faqat o‘zining “buzuq ko‘ngli” ekanligini ta’kidlab o‘tgan.

Ogahiy Navoiyning 7 baytli g‘azaliga 6 banddan iborat muxammas bog‘lagan. Ya’ni g‘azalning 6-bayti (buni g‘azalning begona bayti deb qarash mumkin) muxammasda tushirib qoldirilgan. Navoiyning mazkur baytida umrning o‘tkinchiligini ta’kidlash, dunyoga ko‘ngil bermaslik kabi falsafiy qarashlari ifoda etgan :

Ko‘ngul uz charx zolidin, firibin yemakim oxir,
Ajal sarishtasidin o‘zga bo‘ynung‘a kamand etmas.

Muxammas bandlari davomida lirik qahramon odamlar orasidan o‘ziga munosib do‘st topa olmaydi. Hatto u ko‘ngil bergan ma’shuqa ham “qotilvash”. Shunday bo‘lsa-da, oshiq kun kelib go‘zal yor saxovat ko‘rsatib, o‘zining o‘tli yuzini ochsa, hattoki unga ko‘z tegishidan qo‘rqadi:

Savod zulfini ko‘rgach yumar Ogahiy tun deb ko‘z,
Yuzig‘a nozir o‘lg‘och ham tutar qo‘l birla kun deb ko‘z,
Ko‘ngul , hayratg‘a qolma ko‘rmas oni ne uchun ko‘z,
Ul oy o‘tlug‘ yuzin ochsa Navoiy tegmasun deb ko‘z,
Muhabbat tuxmidin o‘zga ul o‘t uzra sipand etmas.

Banda go‘zal tasvir yaratilgan. Ma’shuqaning qora zulfini ko‘rgan oshiq tun bo‘ldi deb ko‘zini, quyosh kabi nur taratuvchi yuzini ko‘rganda esa uning nuridan qamashgan ko‘zini tutadi. Shu bois, u ma’shuqani ko‘ngil ko‘zi bilan ko‘radi.

Ogahiy o‘z ustozi Navoiy g‘azaliga muxammas bog‘lar ekan, ijodkor nazarda tutgan ma’no-mazmundan uzoqlashmagan holda uni yangicha fikrlar bilan boyitishga harakat qilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, g‘azal va muxammasda ma’shuqa go‘zalligini ta’riflash, hijron iztiroblari, lirik qahramoning ruhiy holati va kayfiyati orqali hayot dialiktikasi badiiy talqin etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusupova D. Огаҳий тахмислари // “Огаҳийнинг ўзбек мумтоз адабиётининг ривожидаги ўрни” мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари. –Т.: 2020, 30-bet.
2. Yusupova D. Огаҳий тахмислари // “Огаҳийнинг ўзбек мумтоз адабиётининг ривожидаги ўрни” мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари. –Т.: 2020, 30-bet.
3. Yusupova D. Огаҳий тахмислари // “Огаҳийнинг ўзбек мумтоз адабиётининг ривожидаги ўрни” мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари. –Т.: 2020, 30-bet.
4. G. Xalliyeva " Ogahiy musammatlari". T- 2019, 90-91- betlar.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.